



UDK:811.21

Tursunoy AXMEDOVA,
Toshkent farmatsevtika instituti katta o'qituvchisi

Toshkent farmatsevtika instituti professori D.Xudoyqulova taqrizi asosida

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA "DO'STLIK" KONSEPTINI IFODALOVCHI LEKSIK VOSITALAR

Annotatsiya

Maqolada kishilik jamiyati tarixining ma'naviy taraqqiyoti, milliy-madaniy qadriyatlar, ularning insoniyat tarixida tutgan o'rni haqida so'z yuritilgan. Umuminsoniy qadriyatlarning ko'rinishlari, hayot va o'lim, yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik kabi tushunchalarning kishilik jamiyatida alohida o'rin tutishi ta'kidlangan. "Do'stlik" aksiologik konseptining leksik vositalar orqali ifodalanishi tahlil qilingan. "Do'stlik" konseptining ifodalanishidagi umumiy va farqli xususiyatlar ajratilgan. Leksik birliklarning axborot berish bilan bir qatorda, uslubiy-semantik funktsiya bajarishi ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Konsept, aksiologik konsept, lisoniy birlik, leksik vosita, leksema, ma'no, so'z, sema, milliy-madaniy sema, valent, o'z ma'no, ko'chma ma'no.

ЛЕКСИЧЕСКИЕ СРЕДСТВА ВЫРАЖЕНИЯ КОНЦЕПТ «ДРУЖБА» В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В статье рассматриваются вопросы духовного развития истории человеческого общества, национальные и культурные ценности, их роль в истории человечества. Подчеркивается, что такие ценности, как жизнь и смерть, добро и зло, добродетель и порок, как проявления общечеловеческих ценностей, занимают особое место в человеческом обществе. Анализируется выражение аксиологического концепта «дружба» через лексические средства. Выделяются общие и различные черты в выражении понятия «дружба». Показано, что лексические единицы, наряду с предоставлением информации, выполняют функционально-семантическую функцию.

Ключевые слова: Концепт, аксиологический концепт, языковая единица, лексический прием, лексема, значение, слово, сема, национально-культурная сема, валентность, собственное значение, переносное значение.

LEXICAL MEANS OF EXPRESSING THE CONCEPT OF "FRIENDSHIP" IN THE UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

Annotation

The article examines the issues of spiritual development of the history of human society, national and cultural values, their role in the history of mankind. It is emphasized that such values as life and death, good and evil, virtue and vice, as manifestations of universal values, occupy a special place in human society.

The expression of the axiological concept "friendship" through lexical means is analyzed. Common and different features in the expression of the concept "friendship" are highlighted. It is shown that lexical units, along with providing information, perform a functional-semantic function.

Key words: Concept, axiological concept, language unit, lexical device, lexeme, meaning, word, seme, national-cultural seme, valence, proper meaning, figurative meaning.

Kirish. Kishilik jamiyati eng qadimgi davrlardan sivilizatsiya bosqichiga qadar turli rivojlanish bosqichlaridan o'tdi. Insoniyat moddiy va ma'naviy hayotida tarixiy taraqqiyot jarayonlari o'z izini qoldirib kelmoqda. Moddiy madaniyat izlari turli imorat, inshootlarda, arxitektura yodgorliklarida saqlanib qolgan bo'lsa, ma'naviy taraqqiyot qadriyatlarda o'z ifodasini topadi.

Inson qadriyatlar muhim o'rin tutadi [4]. Qadriyatlar eng qadimgi davrdan hozirgacha bo'lgan ijtimoiy munosabatlar va shaxslararo muloqot uyg'unligida namoyon bo'ladigan miliy-madaniy tafakkur mahsullaridir.

Insoniyat tarixida qadriyatlar va aksqadriyatlar hamisha yonma-yon yuradi. Hayot va o'lim, yaxshilik va yomonlik, egulik va yovuzlik har bir davrda muhim qiymatga ega bo'lgan qadriyat ko'rinishlaridir.

Mavzuning o'rganilishi. Tilning kommunikativ, emosional-ekspressiv funksiyalaridan tashqari akkumulyativ xususiyati bilan bog'liq bir qator funksiyalari ham borki, ular konseptlar tahlili orqali yaqqol namoyon bo'ladi. Z. Derbisheva madaniyatshunoslikka doir adabiyotlarda keltirilgan tilning quyidagi muhim vazifalarini ta'kidlagan:

til – madaniyat oynasi: faqat insonni o'rab turgan real olam aks etgan ko'zgu emas, xalq mentaliteti, uning milliy xarakteri, an'analari, urf-odatlar, axloqi, qadriyat va meyorlar tizimi, olam manzarasi aks etgan madaniyat ko'zgusidir;

til – madaniyat xazinasi, to'plovchisi: xalq tomonidan to'plangan, madaniyat barcha bilimlar, mahorat, moddiy va ma'naviy qadriyatlar uning til tizimida – folklorida, kitoblarida, og'zaki va yozma manbalarida saqlanib qoladi;

til – madaniyat tashuvchisi: aynan til yordamida madaniyat avlodlardan avlodga yetkaziladi.

til – xalqning mentalitet, an'ana va urf-odatlarini til orqali singigan inson shaxsiyatini jamlangan madaniyat instrumentidir [1].

“Do'stlik” konsepti ifodalangan timsollar, ularning milliy-madaniy xususiyatlari, tushunchaning “tayanch”, “qo'rg'on” kognitiv belgilari orqali namoyon bo'lishi tahlil qilingan [4,46-50]. Ushbu konsept sadoqat mavzusidagi izlanishlarda tahlil doirasiga tortilgan [3]. Bu tadqiqotlar do'stlik va sadoqat bir kognitiv maydonga mansubligini ko'rsatadi.

O'zbek va ingliz maqollarida “do'stlik” konseptining ifodalanishi tahlil qilingan [5,6].

“Do'stlik” abstrakt tushunchasining dunyo predmetlariga qiyoslanishi, o'zbekcha matnlarda sodiqlikning do'stlikka xos oliy xususiyat sifatida ulug'lanishi, ingliz tilida bunday ifodalarning uchramasligi qayd etilgan: “...do'stlik shunday qadriyatki, uni asraydilar, saqlaydilar, avaylaydilar, qadrlaydilar, yo'qotishdan qo'rqadilar. ... bu qimmatbaho predmetni hamma joydan izlaydilar” [2].

“Do'stlik” konsepti barcha madaniyatlarda faol tushunchalardan hisoblanishiga qaramasdan, bu konseptga doir tadqiqotlar kam miqdorni tashkil etadi.

Asosiy qism. “Do'stlik” kishilik jamiyatidagi eng asosiy qadriyatlardan biridir. Inson va tabiat, inson va hayvonot munosabatlaridagi hamda insonlar o'rtasidagi do'stlik har bir taraqqiyot bosqichida o'z ifoda vositalari, milliy-madaniy qarashlari va umumbashariy xususiyatlariga ega bo'lib kelgan.

Jahon tilshunosligida “do'stlik” konsepti qadimiy mavzu sifatida o'rganilib keladi. Madaniyatlarda do'stlik tildagi ma'lum leksik birliklar hamda timollar orqali tasvirlanadi. Masalan, chechen madaniyatida do'st jonli va jonsiz buyumlarga qiyoslangan. Sadoqatli do'st mustahkam, baland minoraga qiyoslangan [3]. Bunday qiyos xalqning dunyoqarashida qal'a, minoralarning himoya vositasi sifatida ko'p kuzatilganidan kelib chiqadi. Shu bilan bir qatorda do'st insonga eng yaqin bo'lgan qondosh akaga o'xshatiladi. Bu esa akaning oiladagi o'rni, uaga nisbatan qalqon vazifasini o'tashi, himoya qilishiga asoslangan. Har ikki qiyosda “himoya qilish” ma'nosi yetakchilik qiladi.

O'zbek va ingliz tillarida “do'stlik” konsepti leksik vositalar va ko'chma ma'noda timsollar orqali ifodalanadi. Kishilik jamiyatida “do'stlik” konsepti eng qadimiy tushunchalardan biri bo'lib, insoniyat tarixida bir qator ko'rinishlarni o'z ichiga oladi. Do'stlik “do'st maqomida bo'lish; yaqinlik, oshnolik; ahillik; mehribonlik” tushunchalarini ifodalaydi [7]. Konseptning asosiy leksik ifodasi bo'lgan do'stlik leksemasi forscha-tojikcha do'st so'zidan yasalgan bo'lib, bu so'z “shafqatli o'rtoq, yor, oshno, mahbub” lug'aviy ma'nosiga ega. Do'st leksemasi o'zbek tilida quyidagi ma'nolarda qo'llanadi: 1. Qarashlari, dili, ish faoliyati yaqin bo'lgan, inoqlik, ahillik bilan bog'langan ikki yoki undan ortiq kishining har biri; o'rtoq. 2. Yaqin, tanish, oshno [7].

O'zbek tilida do'st leksemasining eng faol valentlari qadrdon, chin, vafodor, qiyomatli leksemalaridir: qadrdon do'st; chin do'st; vafodor do'st. Qadrdon, chin, vafodor, qiyomatli leksemalari do'stning sifatini darajalab ko'rsatish xususiyatiga ega: qadrdon → chin → vafodor → qiyomatli. Qadrdon do'st kishilar o'rtasidagi ko'p yillar davomidagi sinashtalikka asoslanadi. Birikmaning asosida “qadr” konsepti yotadi, ya'ni bu do'stlik o'zaro qadrga

asoslangan munosabatlar ifodasini namoyon etadi. Chin do'st birikmasida “haqiqiy” konsepti reallashadi. Vafodor do'st birikuvining asosida vafo, sadoqat kognitiv belgisi ifodalanadi. Qiyomatli do'st o'zbek xalqining mental qarashlari, milliy-madaniy dunyoqarashini aks ettiruvchi birikma hisoblanadi. Qiyomat arabcha so'z bo'lib, diniy e'tiqodga ko'ra, insonlarning qayta tirilish kuni; “tik turish” (arabcha qoim; qiyomat so'zining o'zaktoshi); “qo'zg'olon, g'avgo, to'polon” ma'nosidagi so'z. Qiyomat 1. Diniy e'tiqodlarga ko'ra, go'yo bu dunyo tugagach, u dunyoda hamma tirilib, so'roqqa to'planadigan kun; oxirat, mahshar. 2. Ko'chma ma'noda: “qiy-chuv, to'polon, ur-yiqit; janjal” [9]. Qiyomat so'zida “eng oxirgi daraja” semasi mavjud bo'lib, ko'chma ma'noda so'zlashuv tilida “juda ajoyib, kishi qoyil qoladigan” ma'nolarida ifodalanadi.

Qiyomat so'zi o'rin-payt kelishigi bilan qo'llanib, “hech qachon” ma'nosini ifodalaydi: qarzingni qiyomatda olasan: oxiratda, “o'lganda olsan yoki hech qachon ololmaysan”. Qiyomatli do'st birikmasi abadiy, umrbod ma'nolaridan qo'llanadi. Birikmadagi qiyomatli so'zi qiyomatgacha so'z shakliga sinonim bo'ladi: qiyomatgacha cm. 1 O'la-o'lguncha, bir umr; abadiy. Endi sendan qiyomatgacha ajralmayman; qiyomatli “ajralmas, abadiy” [9]. Qiyomatli do'st “qiyomatda yaraydigan do'st” ma'nosini ham ifoda etadi.

O'zbek madaniyatida do'st bo'lgan, ba'i hollarda do'st bo'lmagan shaxsga ham do'st so'zi bilan murojaat qilinadi: Xo'sh, taqdir, nega xomushsiz? -E, aziz do'stim, sal qiy-nalibroq qoldim. N. Safarov, Hayot maktabi [7].

Badiiy manbalarda diniy, tasavvufiy tushuncha sifatida ham qayd etilgan: Hey do'st, shaydullo, banomi ollo, sadaqa raddi balo, baqavli rasuli xudo. A. Qahhor, Bemor [7].

O'zbek tilida do'st (o'cho'ziq) undov so'zi ham mavjud bo'lib, qayd etilgan birlik bilan omonim hisoblanadi: do'st undov so'z. “Tasanno, ofarin” ma'nolarini bildiradi: Do'st, kam bo'lmang! Bog'larni qoplaydi zavqu shavq, qarsak, Keksalar og'zida: “Do'st!”, “Barakallo!”. Uyg'un, Tong qo'shig'i [7].

O'zbek tilida do'st so'zidan yasalgan do'stlarcha rvsh. “do'stlarga xos ra-vishda”; “do'stona, do'stlar kabi” ma'nolarida ishlatiladi: do'stlarcha muomala; do'stlarcha ko'rishish [7]. Do'st so'ziga -larcha turkiy ravish yasovchi qo'shimcha qo'shilgan. Do'st asosiga – forscha-tojikcha – ona affiksining qo'shilishi natijasida do'stona ravishi yasalgan: do'stona “do'st kabi, do'stlarcha, do'stlardek, do'stlik bilan”: do'stona muomala; do'stona salom; do'stona suhbat [7].

Do'stlashmoq “do'stona munosabatlar bog'lab, o'zaro yaqinlashmoq, ahillashmoq, inoqlashmoq” ma'nolarida qo'llanadi [7]. “Do'st” tushunchasi bilan bog'liq faoliyat jarayonini bildiradi.

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da do'st asosidan yasalgan do'st tortmoq, do'stparvar yasama so'zlari qayd etilgan. Ammo bu so'zlar adabiy tilda deyarli qo'llanmaydi. Badiiy asar matnida uchraydi: do'st tortmoq “do'st!” deb xudoga yolvormoq”. U o'z odatining aksicha do'st tortdi-da, yuqoriga qaradi. S. Anorboev, Oqsoy [7].

Do'stparvar “do'stlarini va do'stlikni sevuvchi, qadrllovchi, do'stlariga mehribon, g'amxo'r”. Va'daga vafoli, axloqda mumtoz, Do'stparvar, o'z so'zli, yoriga sodiq. G'ulom [7].

Do'st leksemasi ishtirokida hosil qilingan juft so'zlar faol qo'llanadi: do'st-dushman. Hunarli er xor bo'lmas, Do'st-dushmanga zor bo'lmas [7]. Do'st-

dushman juft so'zlar umumlashgan ma'no ifodalaydi. Inson atrofidagi yaxshi va yomon odamlarni jamlab ko'rsatadi [7].

Do'st-dushman juft so'zi zid ma'noli so'zlardan yuzaga kelgan bo'lsa, do'st-yor juftligi o'zaro sinonim birliklardan shakllangan. Do'st-yor Do'st(lar) va yor(lar), hamdam(lar). Do'st-yorlar ahil bo'lsa, cho'lda oltin undirar. "Mushtum" [7, 675]. Do'st-dushman juft so'zida tartib qat'iy bo'lib, juft so'z dushman-do'st tartibida qo'llanmaydi. Do'st-yor juft so'zida tartib qat'iy emas, o'zgaruvchan. Juft so'zni do'st-yor, yor-do'st tartibida qo'llash mumkin. Bu holat xalq dunyoqarashi, mental xususiyatlarining leksik birliklardagi ifodasi bilan belgilanadi. O'zbek madaniyatida har doim qadriyatlar birinchi qo'yiladi, aks qadriyatlar esa keyin keladi. Bu konseptual yondashuv juft so'zlar tartibida o'z ifodasini topadi: do'st-dushman, yaxshi-yomon, yaxshilik-yomonlik, hayot-o'lim, oq-qora. Do'st-yor juft so'zlari sinonim tushunchalardan iborat va har ikkisi ham qadriyat hisoblanadi. Yor 1 Dilga yaqin kishi; hamdam, do'st, muhib; yordamchi [8].

Yor-birodar juft so'zi ham do'st tushunchasining sinonimlari hisoblanadi. yoru birodar: Do'stlar, oshna-og'aynilar, o'rtoqlar [8].

Yor leksemasidagi "yaqinlik", "sirdoshlik" ma'nolari asosida leksemasining ko'chma ma'nosi yuzaga keldi: yor "sevgili, ma'shuq, ma'shuqa". Vafodor yor [8].

Ingliz tilida "do'st" tushunchasi friend leksemasi va uning sinonimlari bilan ifodalanadi.

"ishonchli do'st" ma'nosidagi pal, buddy, chum so'zlari, asosan, so'zlashuv uslubida qo'llanadi. "Sirdosh, juft, sherik" ma'nosidagi mate do'st konseptining "birgalikdagi faoliyat" kognitiv belgisini ifodalaydi.

Companion leksemasi "yonma-yon yuruvchi sherik", "safdosh do'st" ma'nolarida ishlatiladi. Bu so'z,

asosan, harbiy sohadagi hamkasblar, xizmatdoshlar uchun qo'llanadi.

"Uaqin sherik", "o'rtoq" ma'nosidagi comrade ingliz tili va bir qator roman-german tillarida ishlatiladi.

Confidant "do'stlik" konseptini "sir saqlash" kognitiv belgisi asosida nomlaydi.

Ally leksemasida do'st konseptining "yordam berish", "moddiy va ma'naviy jihatdan ko'maklashish" belgisini aks etradi.

Associate do'stlik konsepti "aloqadorlik", "biror maqsadda birlashish" tushunchasini aks ettiradi. Colleague "hamkasb" tushunchasini bildiradi. Bu leksema ifodasidagi do'stlik konsepti umumiy faoliyatga asoslangan.

"SHerik, umr yo'ldosh" ma'nosidagi partner leksemasida "juftlik" ma'nosi ham aks etgan.

Sidekick leksemasida "muhim yordamchi, ko'mak beruvchi" kognitiv belgisi o'z ifodasini topgan.

Xulosa. O'zbek tilidagi "do'stlik" konseptini ifodalovchi leksik birliklarda "yaqinlik", "ko'p yillik tanish", "vafo", "sadoqat" semalari ustun. Ingliz tilidagi leksik birliklarda "sheriklik", "bir safdalik", "ishonch", "birgalikdagi faoliyat" ma'nolari yetakchilik qiladi.

O'zbek va ingliz tillarida "do'stlik" konseptini lisoniy vositalar orqali ifodalanishida umumiy belgilar bilan bir qatorda, do'stlikning xususiyati, do'stlar orasidagi munosabat, yaqinlikning maqsadi va ko'rinishlaridan kelib chiquvchi farqli belgilari ham ifodalanadi.

"Do'stlik" konseptini ifodalovchi leksik vositalar axborotni qanday yondashuv asosida yetkazishi, uslubiy bo'yoqdorligi bilan farqlanadi. Tahlillarimiz leksik vositalarning konseptni turli darajada aks ettirishi, to'liq qamrab ololmasligi, asosiy kognitiv belgilarini ifoda etishini ko'rsatdi.

ADABIYOTLAR

1. Дербишева З.К. Язык и этнос. Монография. – М.: Флинта, Наука, 2017. – 256 с.
2. Mardiyev T.K. Qardosh bo'lmagan o'zbek va ingliz tillarida "do'stlik" konseptining verballashuvi. Journal of marketing, bizness and management (JMBM). 1/4. Volume 1, Issue 12 (March). – P.78-81.
3. Идрозова Э. С.-А., Мунгашева М.С. Объективация концептов «верность» и «предательство» в дружеских отношениях в чеченском языковом сознании / Известия ВГПУ. Филологические науки. 2021. – С. 208-211.
4. Слышкин Г. Г. Ценность лингвокультурная – ценность философская. Изв. Волгогр. гос. пед. ун-та. Сер. «Социально-экономические науки и искусство», 2004. – № 2. – С. 46 – 50.
5. Shofqorov A. O'zbek va ingliz maqollarda "do'stlik" konseptining ifodalanishi. Science and education scientific journal. November, 2020.
6. Shukrullayeva G. O'zbek va ingliz xalq maqollarida do'stlik tushunchasi masalalari. Scientific progress. Scientific journal. Issue: 6. – P.684.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. I. –Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. –680 b.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati. II. –Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. –672 b.
9. O'zbek tilining izohli lug'ati. V. –Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. –592 b.